

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2021- yil yanvar-fevral oylari uchun dastlabki ma'lumot)**

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-fevral oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 103,0 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 16,5 mln. AQSh dollariga yoki 19,1 % ga ko'paydi.



**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar-fevral, ming AQSh dollari)**

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	86 482,3	102 986,6	119,1%	x
Eksport 	58 575,8	66 182,4	113,0%	100,0
 <u>tovarlar</u>	58 090,8	65 920,2	113,5	99,6
 <u>xizmatlar</u>	485,0	262,2	54,1	0,4
 <u>oltin</u>	-	-	-	-
Import 	27 906,5	36 804,2	131,9%	100,0
 <u>tovarlar</u>	25 398,9	35 601,8	140,2	96,7
 <u>xizmatlar</u>	2 507,6	1 202,4	47,9	3,3
 Saldo	30 669,3	29 378,2	x	x

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 66,2 mln. AQSh dollariga (13,0 % ga ko'paydi) va import hajmi 36,8 mln. AQSh dollariga (31,9 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida 29,4 mln. AQSh dollari qiymatida ijobiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI BILAN TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-fevral, mln. AQSh dollari)**



Qoraqalpog'iston Respublikasi, jahonning 45 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (21,1 %), Rossiya Federatsiyasida (17,6 %), Turkiyada (17,4 %), Qozog'istonda (8,7 %), Latviyada (5,9 %), Chexiya Respublikasida (5,4 %) va Ukrainada (4,1 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA da Qirg'iziston, Afg'oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya va Qozog'iston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR
(yanvar-fevral, mln. AQSh dollari)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 12 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Turkiya (13,3 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (11,4 mln. AQSh dollari), Rossiya (7,5 mln. AQSh dollari) va Latviya (5,9 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 8 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI
(yanvar-fevral, mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	33,8	22,4	21,8
Eksport	13,7	16,0	16,6
Import	20,1	6,4	5,2
Saldo	-6,4	9,6	11,4
Rossiya Federatsiyasi	30,2	23,5	18,1
Eksport	25,4	17,8	12,8
Import	4,8	5,7	5,3
Saldo	20,6	12,1	7,5
Turkiya	16,0	10,5	17,9
Eksport	9,9	9,9	15,6
Import	6,1	0,6	2,3
Saldo	3,8	9,3	13,3
Qozog'iston	11,3	10,2	9,0
Eksport	8,7	6,2	5,3
Import	2,6	4,0	3,7
Saldo	6,1	2,2	1,6
Latviya	4,1	6,4	6,1
Eksport	3,9	5,6	6,0
Import	0,2	0,8	0,1
Saldo	3,7	4,8	5,9
Chexiya Respublikasi	0,1	-	5,5
Eksport	0,0	-	-
Import	0,1	-	5,5
Saldo	-0,1	-	-5,5



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Ukraina	0,5	0,1	4,2
Eksport	0,4	0,0	4,1
Import	0,1	0,1	0,1
Saldo	0,3	-0,1	4,0
Koreya Respublikasi	7,7	5,0	4,2
Eksport	2,3	0,2	0,2
Import	5,4	4,8	4,0
Saldo	-3,1	-4,6	-3,8
Vyetnam	0,9	1,6	2,4
Eksport	-	-	-
Import	0,9	1,6	2,4
Saldo	-0,9	-1,6	-2,4
Germaniya	1,0	0,2	1,8
Eksport	0,0	0,1	0,0
Import	1,0	0,1	1,8
Saldo	-1,0	-0,1	-1,7
Qirg'iz Respublikasi	1,1	0,3	1,8
Eksport	1,0	0,2	1,0
Import	0,1	0,1	0,8
Saldo	0,9	0,1	0,2
Fransiya	0,0	0,0	1,0
Eksport	0,0	-	0,6
Import	0,0	0,0	0,4
Saldo	0,0	0,0	0,2
Afg'oniston	0,4	0,0	0,8
Eksport	0,4	0,0	0,8
Import	-	0,0	-
Saldo	0,4	0,0	0,8



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI


Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
BAA	0,7	0,1	0,8
Eksport	0,2	0,0	0,1
Import	0,5	0,1	0,7
Saldo	-0,3	-0,1	-0,6
Iroq	0,3	0,6	0,8
Eksport	0,3	0,6	0,8
Import	-	-	-
Saldo	0,3	0,6	0,8
Tojikiston	0,4	0,2	0,8
Eksport	0,4	0,2	0,8
Import	-	-	-
Saldo	0,4	0,2	0,8
Vengriya	-	-	0,7
Eksport	-	-	-
Import	-	-	0,7
Saldo	-	-	-0,7
Turkmaniston	1,3	0,1	0,6
Eksport	0,1	0,1	0,1
Import	1,2	0,0	0,5
Saldo	-1,1	0,1	-0,4
Niderlandiya	0,2	0,1	0,5
Eksport	-	-	-
Import	0,2	0,1	0,5
Saldo	-0,2	-0,1	-0,5
Estoniya	1,0	0,2	0,5
Eksport	0,7	0,2	0,5
Import	0,3	0,0	-
Saldo	0,4	0,2	0,5

Qoraqalpog'iston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'ngi yillarda biroz o'zgardi.

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021- yilning yanvar-fevral oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 33,7 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi 6,3 % ga kamaygan.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY
DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-fevral, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-fevral oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 31,6 % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi 66,3 % ni tashkil etdi.


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-fevral)

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida mamlakatning eksportyorlari soni 92 tani tashkil etib, ular tomonidan 66,2 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 13,0 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,6 % ni tashkil etib, ular kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (73,1 %), sanoat tovarlari (10,8 %), noziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (9,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-fevral)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	Ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	Ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	66 182,4	113,0	100,0	24 029,5	97,9	100,0	42 152,9	123,9	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3 484,3	147,6	5,3	1 094,7	72,8	4,5	2 389,6	2,8 b.	5,6
Ichimliklar va tamaki	5,0	-	0,0	5,0	-	0,0	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6 062,0	102,8	9,2	289,2	143,9	1,2	5 772,8	101,4	13,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	575,2	3,9 b.	0,9	112,3	-	0,5	462,9	3,2 b.	1,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	48 420,7	111,8	73,1	19 164,3	97,3	79,8	29 256,4	123,9	69,4
Sanoat tovarlari	7 199,2	112,8	10,8	3 193,2	115,5	13,3	4 006,0	110,8	9,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	173,8	42,9 b.	0,3	20,3	5,0 b.	0,1	153,5	-	0,4
Xizmatlar	262,2	54,1	0,4	150,5	38,6	0,6	111,7	117,9	0,3

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hissasiga to'g'ri kelmoqda, eksport hajmi bo'yicha keyingi o'rinlar sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda nooziq-ovqat xomashyoga (yoqilg'idan tashqari) to'g'ri kelmoqda.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2020- yilning yanvar-fevraliga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda sanoat tovarlaridan tashqari barcha tovar guruhlarida o'sish kuzatildi.



**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-fevral, % da)**

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,0	4,0	5,3
Ichimliklar va tamaki	0,1	-	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,6	10,1	9,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,7	0,3	0,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	83,6	73,9	73,1
Sanoat tovarlari	7,6	10,9	10,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,0	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	0,0	0,0	0,3
Xizmatlar	0,4	0,8	0,4



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR
EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-fevral)**

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	2 650,2	114,8
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	824,7	16,0 b.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,2	-
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	6,9	-
Har hil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1,1	-
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	1,2	-
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	5,0	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	5 022,2	173,8
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	954,7	32,7
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	14,0	31,9
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	71,1	174,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	575,2	3,9 b.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	19,3	-
Birlamchi shakldagi plastmassalar	48 381,0	111,7
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojaxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	15,0	189,3
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,4	-




Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	5,0	-
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	7 193,8	112,7
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	1,4	141,8
Cho'yan va po'lat	-	-
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	4,0	-
Metalldan tayyorlangan buyumlar	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Avtomobillar	-	-
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	-	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	-	-
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalari	-	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	20,3	5,0 b.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	153,5	-
Xizmatlar		
Moliyaviy xizmatlar	100,1	154,9
Transport xizmatlari	108,0	38,5
Safarlar (turizm)	54,2	40,2
Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar	-	-
Qurilish xizmatlari	-	-

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yilning yanvar-fevralidagi 53,0 % dan 2021- yilning yanvar-fevralida 36,3 % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 63,7 % ni tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR
EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-fevral, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 25,1 % i), Turkiya (23,6 %), Rossiya Federatsiyasi (19,4 %), Latviya (9,0 %), Qozog'iston (7,9 %), Ukraina (6,2 %) va Qirg'iz Respublikasi (1,4 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 92,6 foizni tashkil etmoqda.



**RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI**
(2021- yil yanvar-fevral, % da)





2021- yilning yanvar-fevral oylarida, o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Rossiya Federatsiyasining ikki pog'onaga tushishi hisobiga, Xitoy Xalq Respublikasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 32 davlatdan 31 davlatga kamaydi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH
SUR'ATLARI**

Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	15 988,3	16 584,6	116,3	103,7	2	1
Turkiya	9 889,9	15 627,0	100,0	158,0	3	2
Rossiya	17 750,9	12 808,9	69,7	72,2	1	3
Latviya	5 653,8	5 982,1	145,5	105,8	5	4
Qozog'iston	6 255,4	5 248,8	72,5	83,9	4	5
Ukraina	33,0	4 102,2	9,2	124,4 b.	21	6
Qirg'iz Respublikasi	168,8	959,0	17,5	5,7 b.	10	7
Afg'oniston	33,6	830,4	9,3	24,7 b.	20	8
Iroq	562,5	762,1	168,6	135,5	7	9
Tojikiston	172,6	756,0	39,8	4,4 b.	9	10
Fransiya	-	613,7	0,0	-	-	11
Estoniya	146,9	462,9	21,2	3,2 b.	12	12
Gruziya	0,0	344,4	0,0	-	32	13
Koreya Respublikasi	162,5	180,6	6,9	111,1	11	14
Italiya	0,0	180,0	-	-	26	15
Litva	-	138,2	-	-	-	16



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
BAA	0,0	90,3	0,0	-	27	17
Portugaliya	-	84,5	-	-	-	18
Ozərbayjon	-	66,6	-	-	-	19
Turkmaniston	106,7	50,7	105,9	47,5	14	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari) kiradi.



RESPUBLIKANING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-fevral, ming AQSh dollari)


XSST tarkibi	Xitoy		Turkiya		Rossiya		Latviya	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	15 988,3	16 584,6	9 889,9	15 627,0	17 750,9	12 808,9	5 653,8	5 982,1
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	27,5	268,3	-	237,6	35,5	144,9	22,2	-
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2661,5	4 186,4	52,1	761,1	188,8	256,6	2 107,3	161,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-	-	-	-	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	11 823,5	8 555,4	8 233,0	14 216,9	14 514,8	9 163,4	3 524,2	5 820,5

XSST tarkibi	Xitoy		Turkiya		Rossiya		Latviya	
	2020- y.	2021- y.						
Sanoat tovarlari	1 475,7	3 420,5	1 604,6	410,6	2 763,5	3 187,8	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	-	-	-	-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	153,5	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	0,2	0,5	0,2	0,7	248,3	56,3	-	0,0

Xizmatlar eksporti hajmi 262,2 ming AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,4 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 45,9 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (41,1 %), moliyaviy xizmatlar (38,2 %) hamda safarlar (turizm) (20,7 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)



■ **Transport xizmatlari**
■ **Safarlar (turizm)**
■ **Moliyaviy xizmatlar**

■ **Qurilish xizmatlari**
■ **Boshqa xizmatlar**




MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1 031,2 ming AQSh dollari qiymatli 4 870,3 tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan 456,5 ming AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 30,7 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 904,5 ming AQSh dollariga teng 4 676,2 ming tonna sabzavot, shuningdek, 52,8 ming AQSh dollari qiymatidagi 55,9 tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 1,6 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2021- yil yanvar-fevral, ming AQSh dollari)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (79,6 %), Rossiya Federatsiyasi (14,0 %) va Italiya (6,4 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Bugungi kunda Qoraqalpog'istonda meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar

tomonidan to'plangan tajriba bilan ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xomashyosini sanoat asosida qayta ishlashga va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI
(yanvar-fevral)**

Davlat nomi	2020- yil			2021- yil		
	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da
Qozog'iston	7 727,0	1 419,0	95,4	4 695,3	820,7	79,6
Rossiya Federatsiyasi	129,4	35,5	2,4	157,1	144,9	14,0
Italiya	-	-	-	17,9	65,6	6,4
Iroq	47,5	33,3	2,2	-	-	-

*- qiymat ifodasida



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 7 230,3 ming AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 10,9 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 13,3 % ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (99,5 %) hamda ipak va ipak mahsulotlari (0,5 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 5 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 6 ta davlatiga eksport qilindi.

Respublikaning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI
(yanvar-fevral, ming AQSh dollari)

Tovar nomi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
 Paxtadan yigirilgan ip	2 825,1	6 380,4	7 193,8
 Ipak va ipak mahsulotlari	190,2	-	36,6

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (3 420,5 ming AQSh dollari – 47,3 %), Rossiya Federatsiyasi (3 187,8 ming AQSh dollari – 44,1 %) va Turkiya (410,6 ming AQSh dollari – 5,7 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.



ALOHIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI
(yanvar-fevral, ming AQSh dollari)





DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI
EKSPORTI DINAMIKASI
(yanvar-fevral, ming AQSh dollari)

Davlatlar	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	2 480,3	1 475,7	3 420,5
Rossiya Federatsiyasi	344,8	2 763,5	3 187,8
Turkiya	-	1 604,6	410,6
BAA	190,2	-	90,3
Portugaliya	-	-	84,5
Hindiston	-	-	36,6
Pokiston	-	412,7	-
Polsha	-	123,9	-


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI
(2021- yil yanvar-fevral)

2021- yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 36,8 mln. AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 131,9 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (43,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (16,3 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (13,3 %) hisobiga to'g'ri keldi.



**XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)**



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-fevralida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,2 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 35,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1,2 mln. AQSh dollariga yetdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-fevral)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	36 804,2	131,9	100,0	10 698,2	106,3	100,0	26 106,1	146,3	100,0



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5 994,8	133,2	16,3	3 449,6	81,3	32,2	2 545,2	10,0 b.	9,7
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 825,5	57,6	5,0	1 825,5	58,1	17,1	-	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2 520,2	5,0 b.	6,8	1 591,8	15,9 b.	14,9	928,4	2,3 b.	3,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1 302,8	3,3 b.	3,5	1 302,8	3,3 b.	12,2	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	4 910,7	134,4	13,3	662,9	2,7 b.	6,2	4 247,8	124,6	16,3
Sanoat tovarlari	2 341,2	4,2 b.	6,4	1 702,9	15,8 b.	15,9	638,3	139,9	2,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	15 907,2	145,7	43,2	127,6	7,3	1,2	15 779,6	172,0	60,4
Turli xil tayyor buyumlar	799,5	47,1	2,2	35,1	49,5	0,3	764,4	47,0	2,9
Xizmatlar	1 202,4	47,9	3,3	-	-	-	1 202,4	48,4	4,6

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 5,9 % dan 16,3 % gacha o'sdi, mashinalar va transport asbob-uskunalari 62,9 % dan 43,2 % ga, turli xil tayyor buyumlar ulushi esa 8,5 % dan 2,2 % ga kamaydi.



IMPORT TARKIBI DINAMIKASI (2021- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0

shu jumladan:

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,9	16,1	16,3
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,6	11,4	5,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,7	1,8	6,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,9	1,4	3,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	6,5	13,1	13,3
Sanoat tovarlari	4,2	2,0	6,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	62,9	39,1	43,2
Turli xil tayyor buyumlar	8,5	6,1	2,2
Xizmatlar	4,8	9,0	3,3

Xizmatlar importining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2021- yilning yanvar-fevral oylarida 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan jami importdagi ulushi 9,0 % dan 3,3 % ga kamaydi.



**ALOHIDA IMPORT TOVARLAR
(2021- yil yanvar-fevral, ming AQSH. doll.)**





**XSTT BO'YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR TARKIBI
(2021- yil yanvar-fevral)**

Mahsulot nomi	Ming AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2 382,1	65,1
Tirik hayvonlar	2 767,9	42,1 b.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2,4	4,1 b.
Sabzavotlar va mevalar	60,0	-
Go'sht va go'sht mahsulotlari	111,3	-
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	107,8	-
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va ulardan tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar	26,6	-
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	536,7	189,7
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	1 652,9	52,6
Metall rudalari va metall parchalari	-	-
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	172,6	7,2 b.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	-	-
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2 043,9	5,0 b.
Ko'mir, koks va briketlar	462,6	4,6 b.
Tabiiy yoki sun'iy gaz	13,7	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	1 302,8	3,3 b.
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	-	-
Hayvonlar moylari va yog'lari	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Birlamchi shakldagi plastmassalar	277,9	3,9 b.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	43,1	2,5 b.
Kimyoviy materiallar va mahsulotlar	3 097,2	131,6
Organik kimyo moddalari	1 115,9	135,1
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	361,2	16,6 b.
Noorganik kimyo moddalari	15,2	5,7
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	196,1	89,2
Rezina buyumlari	74,5	2,6 b.
Metallardan tayyorlangan buyumlar	453,9	2,3 b.
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	22,4	164,1
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	295,9	7,4 b.
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	1 284,9	27,8 b.
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	13,5	76,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	26,1	32,9
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	10 145,5	2,6 b.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	981,2	36,8
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning elektr qismlari	560,2	29,6
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalar	2 363,8	146,1
Metallarni qayta ishlash mashinalari	1,8	0,8
Kantselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	1,5	26,9
Avtomobililar	1 827,0	4,6 b.
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	34,3	15,7
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	622,6	2,9 b.
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	131,7	10,5
Poyabzal	1,2	49,6 b.
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	0,2	148,5
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	9,5	69,6


Xizmatlar		
Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar	940,5	41,7
Transport xizmatlari	6,7	30,4
Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari	70,6	144,4
Moliyaviy xizmatlar	184,6	100,7

Turli xil tayyor buyumlar importi hajmlarining kamayishiga blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari (89,5 % ga pasaygan), har xil tayyor buyumlar (84,3 % ga pasaygan) va mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar (30,4 % ga pasaygan) importining kamayishi ta'sir qilgan.

Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari importi kamayishiga esa, probka va yog'och-taxtalar (47,4 % ga pasaygan) importining kamayganligi bevosita ta'sir etgan.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-fevral, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**





Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Chexiya Respublikasi umumiy import hajmida 15,0 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (14,5 %) ortda qoldirgan holda birinchi o'rinni egalladi.

2021- yilning yanvar-fevral oylari yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi tomonidan 35 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK
HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-fevral)**

Davlat nomi	ming AQSH dollari		o'sish sur'ati, % da		o'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Chexiya Respublikasi	-	5 510,1	-	-	-	1
Rossiya Federatsiyasi	5 718,1	5 322,6	120,1	93,1	2	2
Xitoy Xalq Respublikasi	6 435,5	5 177,2	32,1	80,4	1	3
Koreya Respublikasi	4 818,6	3 982,1	89,8	82,6	3	4
Qozog'iston	3 963,9	3 707,5	150,2	93,5	4	5
Vyetnam	1 633,0	2 426,7	177,4	148,6	5	6
Turkiya	589,8	2 294,0	9,7	3,9 b.	9	7
Germaniya	116,6	1 772,3	11,5	15,2 b.	19	8
Qirg'iz Respublikasi	123,3	829,8	148,1	6,7 b.	18	9
BAA	90,4	672,1	17,9	7,4 b.	20	10
Vengriya	-	658,4	-	-	-	11
Niderlandiya	83,6	540,8	55,1	6,5 b.	22	12
Turkmaniston	29,7	512,4	2,5	17,3 b.	29	13
Eron	601,3	434,4	70,5	72,3	8	14
Fransiya	11,9	374,2	27,5 b.	31,6 b.	32	15
Avstriya	-	306,3	-	-	-	16
Buyuk Britaniya	188,8	260,5	2,6	138,0	14	17

Davlat nomi	ming AQSH dollari		o'sish sur'ati, % da		o'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Belarus Respublikasi	141,4	246,0	10,5 b.	173,9	17	18
Belgiya	81,6	224,9	122,3	2,8 b.	23	19
Polsha	233,6	224,8	51,4	96,2	11	20

Shuni ta'kidlash kerakki, Chexiya Respublikasi, Vengriya, Niderlandiya, Turkmaniston, Fransiya va Belgiya kabi mamlakatlar Qoraqalpog'iston Respublikasiga tovar va xizmatlar importidagi yirik hamkor davlatlar birinchi yigirmataligiga kirdi.

Yetti yirik hamkor davlatlar (Chexiya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston, Vyetnam va Turkiya) jami importning 77,2 % ulushini tashkil qildi, bu 28 4,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.




**RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-fevral, % da)**



Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-fevral oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 1 202,4 ming AQSh dollarini yoki jami import hajmining 3,3 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 52,1 % ga tushgan. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (78,1 %) va moliyaviy xizmatlar (15,4 %) dan iborat bo'ldi. Shuningdek, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari (5,9 %) va transport xizmatlari (0,6 %) tashkil etdi.



QURILISH MATERIALLARI IMPORTI

2021- yilning yanvar-fevral oylari yakuni bilan 3 597,7 ming AQSh dollari miqdorida qurilish materiallari importi amalga oshirilgan bo'lib, umumiy import hajmining 9,8 % ini tashkil qildi.

Import qilingan qurilish materiallari tarkibida yog'och va yog'och mahsulotlari (81,7 %), shisha va shisha buyumlar (7,3 %) hamda sement (0,9 %) asosiy ulushni egallagan.

2021- yilning yanvar-fevrali yakunlariga ko'ra qurilish materiallari importining 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan ko'payishi (9,2 %) qayd etildi.



QURILISH MATERIALLARI IMPORTI (2021- yil yanvar-fevral)



Yog'och va yog'och mahsulotlari

jami importdagi ulushi - 81,7 %



Shisha va shisha mahsulotlari

jami importdagi ulushi - 7,3 %



Sement

jami importdagi ulushi - 0,9 %



Qurilish materiallari importi, asosan yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, keng ko'lamdagi qurilish-rekonstruksiya ishlarini amalga oshirilishiga qaratilmoqda.



QURILISH MATERIALLARI IMPORTI DINAMIKASI
(yanvar-fevral, ming AQSh dollari)

Qurilish materiallarining turlari	2019-y.	2020-y.	2021-y.
 Yog'och va yog'och mahsulotlari	3 281,2	3 189,6	2 937,8
 Shisha va shisha buyumlar	26,5	20,3	261,9
 Sement	1,5	-	32,5

Qurilish materiallari importining eng katta hajmi yog'och va yog'och mahsulotlariga to'g'ri keldi. 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ushbu tovarlarning importi 2 937,8 ming AQSh dollarini tashkil etdi (pasayish 7,9 %).



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI

2021- yil yanvar-fevral oylari yakuni bilan 15 907,2 ming AQSh dollari miqdorida mashinalar va transport asbob-uskunalar importi amalga oshirilgan bo'lib, umumiy import hajmining 43,2 % ini tashkil qildi.

Import qilingan usbu sohada asosiy ulushni aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar (63,8 %), elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalar (14,9 %), avtomobillar (11,5 %) hamda sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari (6,2 %) egallagan.

Joriy yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, mashina va transport asbob-uskunalar importi 2020- yil yanvar-fevral oylari nisbatan o'sish (45,7 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.: (61) 224-92-06